



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;
Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI	158-170

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari	
asosida)	205-214

Shukurov Orif Jumaboyevich

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari 215-219

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys 220-227

Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ 228-232

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI 233-237

Uliqova Mavludaxon

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI 238-243

Rahmonov Asror ibni Nusrat

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI 244-252

Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI 253-258

Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR 259-265

Vokhidova Tamanno Saidjonovna

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION 266-271

Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI 272-277

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI 278-286

Mirzaev Shukhrat Shavkatovich

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ 287-293

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL 294-301

Islombek Abdikhakimov

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES 302-309

Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ 310-315

Jiyenbayev Baxadir Ospanovich

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA 316-322

Alishaev Sobir Tursunboevich

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ	330-339

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI	398-403

12.00.00- ЮРИДИК ФАНЛАР

Uzakova Go'zal Sharipovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ekologiya huquqi kafedrasi mudiri,
yuridik fanlari doktori (DSc), professor

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA "YASHIL QURILISH" NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish yo'nalişlaridan biri sifatida yashil qurilishni rivojlantirish, uning huquqiy asoslari, jahon tajribasi ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Mualif yashil qurilishni rivojlantirish masalasini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayoni bilan uyg'unlikda o'rgangan va xulosa sifatida ilmiy-huquqiy asoslangan takliflar ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar: ekologizatsiya, barqaror rivojlanish, yashil qurilish, ekologik asoslangan faoliyat, ekologik me'yor

Guzal Uzakova Sharipovna,
Head of the Environmental Law Department
of Tashkent State University of Law,
DSc, Professor

LEGAL ISSUES OF IMPLEMENTATION OF "GREEN CONSTRUCTION" IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. In the article analyzes the development of green construction as one of the directions of the transition to the green economy in the Republic of Uzbekistan, its legal foundations, and the world experience from a scientific and legal point of view. The author studied the issue of developing green construction in harmony with the process of achieving the Sustainable Development Goals of the United Nations and developed scientific and legal proposals as a conclusion.

Keywords: ecologization, sustainable development, green construction, ecologically based activity, ecological limit

Узакова Гузал Шариповна,
Заведующая кафедры Экологическое право
Ташкентского государственного
юридического университета,
доктор юридических наук (DSc), профессор

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ РЕАЛИЗАЦИИ «ЗЕЛЕНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА» В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье с научно-правовой точки зрения анализируются развитие зеленого строительства как одного из направлений перехода к зеленой экономике в Республике Узбекистан, его правовые основы и мировой опыт. Автор изучил вопрос развития зеленого строительства в гармонии с процессом достижения Целей устойчивого развития ООН и в заключение разработал научно-правовые обоснованные предложения.

Ключевые слова: экологизация, устойчивое развитие, зеленое строительство, экологически обоснованная деятельность, экологический стандарт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N38>

Hech kimga sir emaski, bugungi kunda mamlakatimiz va dunyoning barcha mintaqalari, davlatlarida ekologik muammolar hal qilinishi zarur bo'lgan eng muhim masalalardan biriga aylandi. Bugungi kunda dunyoda iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi, bioxilmassallikning yo'qolishi, havoning ifloslanishi kabi ekologik muammolar yechimi nihoyatda dolzarb bo'lib qoldi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-yilda qabul qilingan va bugungi kunda dunyoning barcha davlatlari uchun taraqqiyot dasturi vazifasini o'tayotgan Barqaror rivojlanish maqsadlarining aksariyati ekologik muammolarni hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik talofatlarning salbiy oqibatlarini yumshatish hamda fuqarolar uchun qulay, sog'lom atrof-muhitni ta'minlash bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida ham mazkur yo'nalishda tizimli chora-tadbirlar amalgalashirilmoqda. Xususan, bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasiga oid 30 ga yaqin qonunlar, 500 dan ortiq qonunosti aktlari amal qiladi, shuningdek 5000 dan ortiq ekologik normativlarga rioya qilinadi. Quvonarlisi, yangilangan Konstitutsiyamizga fuqarolarning ekologik huquqlariga oid alohda bob kiritildi. Konstitutsiyaning 49-moddasida fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqi hamda atrof-muhitning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi kafolatlandi, davlatning shaharsozlik hujjatlarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi yuzasidan majburiyatlari kengaydi. Eng muhim, mazkur moddada belgilanishicha, davlat mamlakat barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, Orolbo'yini mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'rishi belgilab qo'yildi.

Atrof-muhit muhofazasiga oid konstitutsiyaviy normalar hamda qonunlarda belgilangan talablarning bajarilishi jamiyat hayotini ekologizatsiyalashtirishni jadallashtirish, mamlakatimizda ekologik asoslangan faoliyatni rivojlantirish, ekologik normativlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolarning ekologik axborot olish imkonini kengaytirish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ta'kidlash joizki, atrof-muhit muhofazasi va uni kelajak avlod uchun yaroqli holda yetkazish masalasi butun dunyo xalqlarini birdek tashvishga soladi. Davlatimiz rahbari ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida (20.09.2023), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlat rahbarlari Kengashida (13.10.2023), Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashida (03.11.2023), Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida (14.09.2023), "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumida (18.10.2023), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (SOP28) (01.12.2023) qilgan nutqlarida iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, energetik xavfsizlik va boshqa qator ekologik muammolar va ularning yechimi yuzasidan amaliy takliflarni ilgari surdilar. [1]

Bugungi kunda aholi sonining o'sib borishi va qurilish, energetika, sanoat, transport, aloqa kabi sohalarning rivojlanishi mazkur sohalarni ham ekologik talablar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, qurilish jarayonida ekologik talablarni qat'iy belgilash va shaharsozlikni mazkur talablar asosida rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan sanaladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturida ta'kidlanishicha, qurilish sektori manbalarni tejash muammosini hal qilishda markaziy o'rinni egallashi kerak, chunki qurilish sohasi dunyoning ko'pgina energiya manbalarini iste'mol qiladi, shu bilan birga ushbu soha (boshqa tarmoqlar bilan solishtirganda) o'z samaradorligini oshirish uchun katta va dunyo miqyosida issiqxona gazlarini kamaytirish uchun eng katta imkoniyatlarga ega. [2]

Barqaror rivojlanish konsepsiysi inson faoliyati va tabiiy manbalarni tejashning oqilona uyg'unlashuvidan iborat bo'lib, zamонавија jamiatning asosiy ehtiyojlarini, kelajak avlodlar ehtiyojlarini ta'minlash imkoniyatini xavf ostiga qo'ymasdan qondirishga imkon beradigan iqtisodiy rivojlanishni nazarda tutadi. Bunda davlatning asosiy vazifasi – ekologik va iqtisodiy nizolarni hal qilish va ommaviy hamda xususiy manfaatlarning muvozanatini ta'minlashdir. Global ekologik muammolar fan va amaliyotda "yashil" atamasini hayot faoliyatining turli xil ob'ektlari va jarayonlariga nisbatan faolroq qo'llanilishini belgilaydi, bu ularning ekologik jihatdan xavfsiz xususiyatlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga qurilish sohasining ekologizasiyalashuvi so'nggi yillarda fan va amaliyotda yangi qurilayotgan bino va inshootlarning – "yashil" qurilish kabi yuqori sifatini ta'minlovchi yangi yo'nalish paydo bo'lishiga olib keldi. "Yashil" qurilish tushunchasining paydo bo'lishi dunyo iqtisodiyotining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan umumiy tendensiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda avvalambor, ishlab chiqarishning energiya tejamkorligi, energiya samaradorligi strategiyasini targ'ib qilish, muqobil energiya manbalaridan keng foydalanish kabi maqsadlarni ko'zlaydi. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiysi xalqaro hamjamiyat tomonidan 2008 yildagi moliyaviy inqirozni hal qilish vositasi sifatida qo'llanilib, 2012 yilda bo'lib o'tgan BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha "Rio + 20" konferensiyasida barqaror rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish doirasidagi mavzulardan biri bo'lgan. [3]

Ta'kidlash joizki, "yashil" qurilish "yashil shahar" konsepsiysi doirasida amalgा oshirilishi maqsadga muvofiqdir. 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida [4] resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, "yashil infratuzilma"ni yaratish, binolarning energiya samaradorligini oshirish sohasidagi choratadbirlarni, past uglerodli texnologiyalardan (issiqlik nasoslari, qayta tiklanadigan energiya manbalari) va xususiy xo'jaliklarda yanada toza yoqilg'i turlaridan foydalanishni rag'batlantirish kabilar belgilangan.

2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining asoslari, bu boradagi davlat siyosatining strategik maqsadiga erishishni ta'minlovchi asosiy vazifalar qatoriga ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash va ekologik jihatdan samarali innovatsion texnologiyalarni joriy etish, atrof muhitga salbiy ta'sirning oldini olish va kamaytirish nazarda tutilmoqda. Mazkur muammoni hal qilishda, iqtisodiyot tarmoqlari shu jumladan, qurilish faoliyatida ham "yashil" standartlarni qo'llash bo'yicha xalqaro tajribani hisobga olgan holda, ko'chmas mulk ob'ektlarini ixtiyoriy ekologik sertifikatlash tizimida sertifikatlangan bino va inshootlarni qurish hajmini ko'paytirish talab etiladi.

Qurilish faoliyatining ekologik-huquqiy mexanizmi [5] (xo'jalik faoliyati turi sifatida) dan foydalangan holda huquqiy tartibga solish uzoq vaqtadan beri qo'llaniladi. Hozirgi vaqtida qurilish sohasini ekologizatsiyalash mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qaroriga muvofiq, texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan 2019–2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasida binolarni qurish va ulardan foydalanish sohasida 19 ta ustuvor vazifa belgilangan bo'lib, binolarni qurish va rekonstruksiya qilishda energiya samaradorligini oshirishni hisobga olgan holda arxitektura-rejallashtirish yechimlariga bo'lgan yondashuvlarni takomillashtirish, binolarni energetik sertifikatlashtirish tizimini yaratish, muhandislik uskunalar, issiq saqlovchi materiallar, isitish va sovitish tizimlarini ishlab chiqish texnologiyalarini "yashil" standartlar assosida rivojlantirish va modernizasiyalash, maishiy uskunalar uchun energiya samarador standartlarni joriy etish hamda energiya ta'minoti manbai sifatida fotoelektrik panellarni joriy etish, shular jumlasidandir. [6]

Qurilish antropogen faoliyat turi sifatida atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfiga ega. Bu esa, bino va inshootlar quriladigan hududlarni oldindan belgilab qo'yish hamda qurilish bo'yicha qaror qabul qilishning dastlabki bosqichlarida, shu jumladan rejallashtirish bosqichida hududdan foydalanish istiqbollarini belgilashda ekologik oqibatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Qurilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar – bu "jamiat – tabiat" sohasidagi munosabatlar bo'lib, ekologiya va yuridik fanlarning o'r ganish predmetini tashkil etadi. Qurilish ishlarini tashkil etish va boshqarish sohasidagi munosabatlarda esa arxitektura va shaharsozlik, boshqaruv bilan bog'liq munosabatlar yetakchilik qiladi.

Qurilish faoliyatini bo'yicha huquqiy munosabatlar tizimida markaziy va asosiy o'rinni tabiiy ob'ektlardan foydalanish bo'yicha munosabatlari egallaydi. Boshqacha aytganda, tabiiy ob'ektdan foydalanish jarayonida qurilish sub'ektlari uni o'zgartiradi.

Tabiatning yaxlitligi tufayli, qurilish jarayonida atrof muhitni o'zgartiradigan sub'ektga atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tegishli majburiyatlar yuklanadi. Bu munosabatlarda subektiv huquqlar va yuridik majburiyatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aniq maqsad bilan birlashtirilgan.

Qurilish qilishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar qurilish qilishda tabiiy manbalardan oqilona foydalanishni hamda atrof muhitni va uning tarkibiy qismlarini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan. [7]

Ta'kidlash lozimki, zamonaviy urbanizasiya global ekologik vaziyatni shakllantiruvchi tabiatga antropogen ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda yashash muhitini urbanizasiya qilish – bu shahar atrof muhiti ko'laming murakkablashishi va

kengayishi, va bu holat ekologiya muammolari nuqtai nazaridan aholi punktlarini o'rganishga bo'lgan doimiy qiziqishni izohlaydi.

Mamlakatimizda ham aholi punktlarida qurilish qilish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish jamiyatning iqtisodiy va ekologik, xususiy va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish maqsadini ta'minlashga qaratilgan.

Tabiatdan foydalanishning maxsus turi sifatida qurilish jarayonini amalga oshirishda konseptual yondashuvni yanada rivojlantirish, uni milliy qonunchilikda va huquqni qo'llash amaliyotida tatbiq qilinishi bino va inshootlarni qurishni rejalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilishda tabiat ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan yanada samarali foydalanish yo'llarini qidirib topish zaruratini vujudga keltirdi.

Qurilish deganda, tabiat ob'ektlarini ularning maqsadlariga mutanosib zasar yetkazmasdan amalga oshirib bo'lmaydigan, yer bilan mustahkam bog'langan ko'chmas mulk ob'ektlarini, yer uchastkasidagi kapital qurilish ob'ektlarini, ya'ni ko'chmas mulk ob'ektlarini barpo etish (qurish) tushuniladi. [8]

Qurilishda yerdan hududiy asos, negiz sifatida foydalaniladi. Yer qonunchiligidagi "qurilish" atamasi juda ko'p ishlatiladi, binolar, inshootlar barpo etilishi ruxsat etilgan, yerlarning toifalari va ruxsat etilgan foydalanish turlari, qurilishni belgilangan muddatda bajarilmasligining huquqiy oqibatlari belgilanadi (masalan, Yer kodeksining 36-moddasi va b.).

Qurilish faoliyati – bu jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning tabiiy ob'ektlardan foydalanish sohasidagi faoliyatidir, buning natijasida yer sathining tegishli qismi va undagi (yoki uning ostida) joylashgan tabiiy ob'ektlar sun'iy ravishda ko'chmas mulkni (binolarni, inshootlarni, tugallanmagan qurilishlarni, ruxsatsiz qurilishlarni) qurish yoki rekonstruksiya qilish natijasida tabiiy va antropogen ob'ektga aylantiriladi. Yer maydonlariga qurilish qilish bo'yicha ishlarni ekologik jihatdan ahamiyatli faoliyat [9] sifatida baholash mumkin, zero, mazkur faoliyat ham tabiiy manbalarga intensiv ta'sir ko'rsatish usuli bilan tavsiflanadi va hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlarini ko'zlab ularni amalga oshirishda atrof muhitni muhofaza qilishni talab qiladi.

Qurilish sohasi mamlakatimizda so'nggi yillarda izchil rivojlanayotgan iqtisodiy taraqqiyotning drayveri bo'lmoqda. So'nggi yillarda qurilishni ekologizasiyalash, ya'ni, ekologik jihatdan tejamkor, kamchiqit texnologiyalarni qo'llash bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilanmoqda. Shu bilan birga qurilish faoliyatini ekologiyalashtirish tamoyillarini ta'minlash zarurligi belgilab qo'yilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-son Farmonida ham Qurilish vazirligining asosiy vafalaridan biri sifatida resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan energiya samarador va energiya tejaydigan innovasion loyiha va qarorlarni qurilish faoliyatiga joriy etish nazarda tutilgan. [10]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 23- maydagi PQ-4335-son Qarori bilan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini nazarda tutgan holda sement ishlab chiqaruvchilar, g'isht zavodlari, so'ndirilgan ohak ishlab chiqaruvchi sexlarning energiya tejamkorligini, shu jumladan, ko'mirdan va tabiiy gazga muqobil bo'lgan boshqa yoqilg'i turlaridan foydalanishga o'tkazish orqali bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlangan. Ta'kidlash lozimki, g'isht ishlab chiqarishning tabiiy zarari ko'p,

xususan, tuproqni qayta tiklab bo'lmaydi, yerning unumdarligi pasayib ketadi, gaz sarfi katta, shuningdek, ekologiya va atrof muhitga salbiy ta'siri yuqori. Sobiq ittifoq mamlakatlaridan tashqari, ko'plab davlatlar, xususan, Yevropa davlatlarida g'isht ishlab chiqarishdan allaqachon voz kechishgan. Shularni inobatga olib, kelgusida gazobeton, penobeton kabi zamонавиј qurilish materiallарини ishlab chiqarishni kengaytirish zarur.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 13-martdagi PF-5963-son Farmoni bilan 2021- yil 1-yanvardan davlat buyurtmachilarini va davlat xarid sub'ektlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ob'ektlarning loyiha hujjatlari kompleks ekspertiza o'tkazish uchun energiya samaradorligi talablariga muvofiqligi bo'yicha majburiy tartibda ekspertizadan o'tkazilishi shartligi belgilandi. [11]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida" 2020-yil 5-fevraldagi PQ-4586-son Qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi va hududiy inspeksiyalar inspektorlariga ob'ektlarda inson salomatligi va hayotiga tahdid soluvchi sifatsiz qurilish materiallari va buyumlar qo'llanilgani aniqlangan hollarda, qurilish materiallari va buyumlar ishlab chiqarish, sotish va qo'llashni to'xtatib turish haqida tegishli organ va tashkilotlarga taqdimnomalar yuborish huquqi berildi. [12]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 23- maydagi PQ-4335-son Qaroriga muvofiq, faqatgina tegishli sinovlardan o'tgan va belgilangan tartibda muvofiqlik sertifikati berilgan qurilish materiallari qurilish ishlariда qo'llanilishi mumkinligi, shuningdek, energiya tejamkorlik mezonlariga muvofiq kelmaydigan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarni 2021-yil 1- yanvarga qadar ko'mir va tabiiy gazga muqobil bo'lgan boshqa yoqilg'i turlaridan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tkazish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-son Farmoniga asosan, uy-joy qurilishi ob'ektlari loyiha-tadqiqot va qurilish-montaj ishlarini bajarish bosqichida energiya-samarador va energiya-tejamkor uskunalar bilan majburiy ravishda jihozlanishi, shuningdek, ular foydalanishga qabul qilinishidan avval energetik audit pasportini olishi kerakligi (BREEAM (binolar samaradorligini ekologik baholash usuli) va LEED (energiya-samarador va ekologik loyihalashtirish bo'yicha qo'llanma) xalqaro standartlari bo'yicha sertifikatga ega ob'ektlar bundan mustasno) o'rnatildi. [13]

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizasiya qilish, jadal va innovasion rivojlantirishning 2021–2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son Farmonida 2025-yilga borib milliy shaharsozlik normalari va qoidalarini kamida 50 foiz darajasida xalqaro normativ va standartlar bilan uyg'unlashtirish belgilanganligini ham muhim qadam bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, ushbu maqsadli ko'rsatkichga erishish maqsadida 2021 yilda 10%, 2023 yilda 30% hamda 2025 yilda 50% milliy shaharsozlik normalari va qoidalarini xalqaro normativ va standartlar bilan uyg'unlashtirish nazarda tutilgan. Biroq, mazkur maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun har yil uchun mo'ljallangan, qayta ko'rib chiqilishi

lozim bo'lgan milliy shaharsozlik normalari va qoidalarining aniq ro'yxatini nazarda tutuvchi qaror qabul qilinishi lozim.

Qurilish faoliyatining ekologik-huquqiy mexanizmi [14] (xo'jalik faoliyati turi sifatida)dan foydalangan holda huquqiy tartibga solish uzoq vaqtidan beri qo'llaniladi. Hozirgi vaqtida qurilish sohasini ekologizatsiyalash mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, "yashil" qurilish "yashil shahar" konsepsiysi doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. "Yashil" qurilish – bu qurilish jarayonida ekologik standartlar asosida ishlab chiqilgan, ekologik sertifikatlarga mahsulotlardan foydalanish, energiya tejamkor bino-inshootlar va uy-joylarni barpo etish, ekologik jihatdan samarali innovatsion texnologiyalarni joriy etish, qurilgan bino-inshootlarning ekspluatatsiya jarayonida atrof muhitga salbiy ta'siri eng kam darajada bo'lishini ta'minlashdir. "Yashil" qurilish talablarining joriy etilishi qurilish sohasining ekologizatsiyalashuvini ta'minlaydi hamda tabiatga zararli ta'sirni kamaytirish, tabiiy manbalarni (shu jumladan energetik) iste'mol qilish darajasini pasaytirish va ulardan oqilona foydalanishni amalga oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Maxsus adabiyotlarda "yashil qurilish"ning uchta ustuni ifodalangan: binoning qulayligiga qo'yiladigan maxsus talablar, ob'ekt tomonidan resurslar sarfini sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek binoning uning ichidagi odamlarga va atrof muhitga ta'sirining yo'qligi. [15] Boshqacha aytganda, "yashil" qurilish – barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq atrof muhitni muhofaza qilish talablariga javob beradigan qurilish faoliyatidir.

"Yashil" qurilish o'sish sur'atlarining tezlashishiga ta'sir ko'rsata oladigan ommaviy-huquqiy vositalar tizimida davlat tomonidan qo'llaniladigan iqtisodiy rag'batlantirish choralar muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan rag'batlantirishning asosiy turlari sirasiga ko'chmas mulk bozori ishtirokchilarining aksariyati "yashil" loyihalarni soliq imtiyozlari, ekologik qurilish sohasidagi davlat dasturlarini rivojlantirish, "yashil" loyihalarni subsidiyalash, ekologik jihatdan samarali uy-joy sotib olishda jismoniy shaxslar uchun maxsus imtiyozlarni ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, budget mablag'lari hisobidan qurilish jarayonida "yashil" standartlarni ommalashtirish va amalga oshirish maqsadida ekologik sertifikatlarga ega bo'lgan qurilish mahsulotlariga davlat va jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotib olish bo'yicha tender hujjatlari talablarini belgilash maqsadga muvofiq. Shuningdek, qurilish uchun yer uchastkasini auksion (tender) asosida ajratishda qurilishni "yashil" standartlarga binoan amalga oshirishni taklif etayotgan talabgorga ustunlik berish to'g'risidagi qoidani ham qonunchilikda qayd etish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga ma'lumki, ekologik qurilishlar hamisha ortiqcha mablag' talab etadi. Shunday sharoitda "yashil" qurilishda "ekologik" xarajatlarning bir qismini kompensasiya qilish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda qonunchilikda energiya samarador va energiya tejovchi qurilmalarni xarid qilish hamda ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kompensasiya ajratish, [16] shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha xarajatlarining bir qismini qoplash [17] va b. nazarda tutilgan. Endilikda bu boradagi

tajribadan kelib chiqib, "yashil" qurilishni amalga oshirishda "ekologik" xarajatlarning bir qismini kompensasiya qilish tartibini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

"Yashil" standartlarning maqsadi ekologik sertifikatlangan (markalangan) qurilish materiallaridan foydalanish, bino, inshootning energiya tejamkorligi va energiya samaradorligini oshirish, qurilish ishlari davomida chiqindilarni kamaytirish, binolarda qulay yashash kabilardan iborat.

Qonunchilikda energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy yo'nalishi yanada izchilroq aks ettirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida" 2019-yil 21-maydagi O'RQ-539-son Qonuni [18] 14-moddasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi imtiyozlar va preferensiyalar belgilangan. Unga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun mol-mulk solig'ini to'lashdan hamda ushbu qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'ini to'lashdan ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga ozod etiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran besh yil muddatga soliqning barcha turlarini to'lashdan ozod etiladi. Amaldagi energetika resurslari tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan yashash uchun mo'ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar egaligidagi mol-mulkka qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solinmaydi.

Mamlakatimizda yashil qurilishning huquqiy va texnik jihatdan tartibga solinishi qurilish jarayonida atrof muhitga zarar yetkazmaslik, qurilgan bino-inshootlarni ekspluatatsiya qilish jarayonida atrof muhitni salbiy ta'sirdan himoya qilish (energiya tejamkor bino-inshootlar barpo etish), qurilish ishlari davomida chiqindilar hosil bo'lish hajmini sezilarli darajada qisqartirishga qaratilgan.

Umuman olganda, "yashil" qurilish tabiiy resurs sarfini kamaytirish va maqbullashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga kelgusida binolar va inshootlarning energiya tejashini va energiya samaradorligini ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish, shu jumladan, binolarning energiya samaradorligiga nisbatan qat'iy talablarni belgilash, bunda davlat buyurtmalarini berishda aynan yuqori energiya samaradorligi ko'rsatkichlarini ta'minlaydigan pudratchilarni tanlash mexanizmini joriy etish lozim.

Адабиётлар/Литература/References:

1. https://president.uz/uz/lists/category/5?menu_id=12
2. UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Buldings: Investing in energy and resource efficiency (www.unep.org/greeneconomy).
3. <http://sustainabledevelopment.un.org>. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. URL: <http://www.unep.org/greeneconomy>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,

- 31.10.2019 у., 06/19/5863/3979-сон.
5. Бринчук М.М. Эколого-правовой механизм: понятие и сущность // Экологическое право. – 2013. – № 3. – С. 12-19.
 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ-4477-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019 у., 07/19/4477/3867-сон.
 7. Болтанова Е.С. Правовое регулирование строительства нормами природоресурсного законодательства // Сб. науч. стат. международной науч.-практ. конф. «Европейское юридическое образование и наука». – Киев: Видавництво Ліра-К, 2012. – С. 8-9.
 8. Александрова А.Ю. Правовое регулирование использования земель поселений для застройки в России: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2008. – С. 7.
 9. Дубовик О.Л., Кремер Л., Люббе-Вольф Г. Экологическое право. Учебник. – М.: Эксмо, 2005. – С. 18.
 10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 2 apreldagi PF-5392-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2018 у., 06/18/5392/0982-сон.
 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 13 martdagи PF-5963-сон Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2020 у., 06/20/5963/0300-сон.
 12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida" 2020 yil 5 fevraldagи PQ-4586-сон qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.02.2020 у., 07/20/4586/0127-сон.
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 14 noyabrdagi PF-5577-сон Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.11.2018 у., 06/18/5577/2187-сон.
 14. Бринчук М.М. Эколого-правовой механизм: понятие и сущность // Экологическое право. – 2013. – № 3. – С. 12-19.
 15. Дувинг С. «Зеленые» здания в России и за рубежом // ЮНИДО в России. 2012. № 8 (октябрь). С. 72.
 16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Energiya samarador va energiya tejovchi qurilmalarni xarid qilish hamda ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kompensatsiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021 yil 14 apreldagi 217-сон qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2021 у., 09/21/217/0338-сон
 17. Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha xarajatlarining bir qismini qoplash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 23 fevraldagи 95-сон qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2021 у., 09/21/95/0147-сон.
 18. O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida" 2019 yil 21 maydagи O'RQ-539-сон Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.05.2019 у., 03/19/539/3161-сон.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 1 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).